



TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI-O'QUVCHI MULOQOTI ASOSIDA REFLEKSIV KOMPETENSIYANING RIVOJLANISHI

Davletova Xosiyat Sapavoy qizi,

Urganch davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi.

davletovaxosiyat907@gmail.com, +998888586727

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1682>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 23

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Refleksiya, refleksiv kompetensiya, pedagogik muloqot, ta'lim jarayoni, o'qituvchi, refleksiv faoliyat, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, teskari aloqa (feedback), o'z-o'zini baholash, refleksiv muhit, pedagogik hamkorlik

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur ilmiy maqolada ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot asosida refleksiv kompetensiyaning rivojlanish jarayoni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda refleksiya tushunchasining nazariy asoslari, uning pedagogik va psixologik mazmuni, shuningdek, refleksiv kompetensiyaning tarkibiy komponentlari (kognitiv, motivatsion va faoliyatga oid jihatlari) yoritilgan. Maqolada o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot refleksiv kompetensiyani shakllantirishning muhim omili sifatida asoslab beriladi. Pedagogik muloqot jarayonida o'quvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan. Mazkur tadqiqotda refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodik imkoniyatlari va samarali mexanizmlari aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ochiq va ishonchli pedagogik muloqot muhiti, interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni yaratish hamda muntazam teskari aloqa refleksiv kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash faoliyatiga jalb etilishi ularda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvga asoslangan pedagogik muloqotni tashkil etish o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 23

KEYWORDS

Reflection, reflective competence, pedagogical communication, educational process, teacher, reflective activity, interactive methods, problem-based learning, feedback, self-assessment, reflective environment, pedagogical cooperation

ANNOTATION

This scientific article comprehensively analyzes the process of developing reflective competence based on pedagogical communication between teacher and student in the educational process. The study highlights the theoretical foundations of the concept of reflection, its pedagogical and psychological content, as well as the structural components of reflective competence (cognitive, motivational, and activity-related aspects). The article substantiates effective communication between teacher and student as an important factor in the formation of reflective competence. The mechanisms for developing students' skills of analyzing, evaluating, and self-developing their own activities within the process of pedagogical communication are revealed. This study identifies pedagogical conditions, methodological opportunities and effective mechanisms for the development of reflective competence. According to the results of the study, an open and trusting pedagogical communication environment, the use of interactive methods, the creation of problem situations and regular feedback have a positive effect on the formation of reflective competence. It is also justified that the involvement of students in self-assessment and peer assessment activities develops their critical thinking, independent decision-making and self-management skills. The results of the study show that the organization of pedagogical communication based on a reflective approach in the educational process is one of the important factors ensuring the personal and intellectual development of students.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri shaxsning nafaqat bilim olish darajasini oshirish, balki uning mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda refleksiv kompetensiya muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o'quvchining o'z o'quv faoliyatini anglash, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishiga xizmat qiladi [1].

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mazmuni ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. An'anaviy bilim berishga asoslangan model o'rnini interfaol, shaxsga yo'naltirilgan va hamkorlikka asoslangan ta'lim egallamoqda. Bu esa pedagogik muloqotning nafaqat axborot almashinuvi, balki refleksiv rivojlanish vositasi sifatidagi rolini kuchaytiradi [2].

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimining asosiy metodologik tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur yondashuv o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, o'z faoliyati natijalarini baholash va takomillashtirish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, refleksiv kompetensiya tayanch kompetensiyalardan biri bo'lib, shaxsning o'z-o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini baholash hamda kelgusidagi rivojlanish strategiyalarini belgilashiga xizmat qiladi. Refleksiv kompetensiyaga ega bo'lgan o'quvchi ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etadi va o'z o'quv faoliyatini mustaqil boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Jahon pedagogik amaliyotida refleksiv yondashuv XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanishi refleksiv jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida o'qituvchi bilim beruvchi subyekt sifatidan ko'ra o'quvchining refleksiv faoliyatini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi fasilitator sifatida talqin etilmoqda.

Ta'lim jarayonida refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifatiga bog'liq. Chunki pedagogik muloqot jarayonida o'quvchi o'z fikrlarini ifodalash, o'z nuqtai nazarini asoslash, boshqalarning qarashlarini tahlil qilish hamda o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday jarayon esa o'quvchining refleksiv tafakkurini rivojlantirish bilan birga, uning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarining takomillashuviga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Refleksiya va refleksiv kompetensiya muammosi pedagogika hamda psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etilib kelinayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchaning nazariy asoslari dastlab falsafiy tafakkurda shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik psixologiya va pedagogika fanlarida shaxsning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash mexanizmlarini izohlovchi muhim kategoriya sifatida rivojlandi. Refleksiya shaxsning o'z fikrlari, harakatlari va faoliyati natijalarini qayta ko'rib chiqishi, ularning mazmunini anglab yetishi hamda keyingi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ichki intellektual jarayon sifatida talqin qilinadi [1, 42-b.].

Refleksiyaning psixologik mohiyatini ochib berishda rus psixologik maktabi vakillarining ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Xususan, S.L. Rubinshteyn refleksiyani ong va faoliyat birligi tamoyili asosida izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, inson faoliyati tashqi muhit ta'sirida emas, balki uning ichki ong pozitsiyasi orqali boshqariladi va refleksiya aynan shu jarayonning markaziy mexanizmi hisoblanadi [2, 118–120-b.]. Rubinshteyn refleksiyani shaxsning o'z harakatlariga ongli munosabat bildirish, ularni baholash va zarur hollarda qayta tashkil etish imkonini beruvchi psixologik vosita sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuv refleksiv kompetensiyaning shakllanishida ichki motivatsiya va o'z-o'zini boshqarish omillarining muhimligini asoslaydi.

Refleksiya muammosining pedagogik jihatlarini V.A. Slavenin tomonidan keng yoritilgan. Olim refleksiyani pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib, o'qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [3, 214-b.]. Uning fikricha, refleksiya pedagogga o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, pedagogik qarorlar samaradorligini baholash hamda kasbiy o'sish istiqbollarini belgilash imkonini beradi. Shu bois refleksiv yondashuv zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim metodologik asos sifatida qaraladi.

A.K. Markova refleksiyani pedagogning kasbiy o'zini anglash jarayoni bilan bog'laydi. U kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida refleksiv faoliyatni ko'rsatib, pedagogning o'z kasbiy imkoniyatlarini baholashi, faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlashi va ularni bartaraf etishga intilishi refleksiya orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi [4, 96–98-b.]. Markova refleksiv kompetensiyani kasbiy kompetensiyaning muhim komponenti sifatida baholab, uning pedagogik faoliyat sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.

Pedagogik muloqot va refleksiya o'rtasidagi bog'liqlik masalasi S.V. Kondratevaning tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan. Olim refleksiyaning kommunikativ va shaxsiy shakllarini ajratib ko'rsatadi hamda pedagogik muloqot jarayonida kommunikativ refleksiya alohida ahamiyat kasb etishini asoslaydi [5, 73-b.]. Uning fikricha, kommunikativ refleksiya o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro tushunishni kuchaytiradi, hamkorlik muhitini shakllantiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida pedagogik muloqotning o'rini belgilash imkonini beradi.

Pedagogik muloqotning refleksiv rivojlanishdagi ahamiyati A.A. Leontev tomonidan ham alohida ta'kidlangan. Olim pedagogik muloqotni murakkab kommunikativ tizim sifatida tavsiflab, unda axborot almashinuvi bilan bir qatorda shaxsiy rivojlanish jarayonlari ham amalga oshirishini qayd etadi [6, 57–60-b.]. Leontevning fikricha, samarali tashkil etilgan pedagogik muloqot o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli refleksiv kompetensiya va pedagogik muloqot bir-biri bilan uzviy bog'liq pedagogik hodisalar sifatida qaraladi.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda refleksiv kompetensiya integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin qilinmoqda. Tadqiqotchilar uni shaxsning o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish, baholash va zarur hollarda tuzatishlar kiritish qobiliyatlarini birlashtiruvchi murakkab kompetensiya deb hisoblaydilar [7, 141-b.]. Mazkur yondashuv refleksiv kompetensiyaning faqat intellektual emas, balki motivatsion, kommunikativ va amaliy jihatlarini ham qamrab olishini ko'rsatadi.

E.F. Zeer refleksiv kompetensiyani kasbiy ta'lim tizimida shakllantiriladigan asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, refleksiv kompetensiyaning rivojlanganligi shaxsning o'z kasbiy faoliyatini mustaqil tashkil etish, o'z imkoniyatlarini real baholash va kasbiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatini belgilaydi [8, 203-b.]. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida refleksiv kompetensiyani shakllantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda refleksiv kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xususan, interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyalari, loyiha faoliyati hamda teskari aloqa mexanizmlarining refleksiv fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan [9, 112–114-b.]. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undasa, teskari aloqa ularning o'z faoliyatini baholash va takomillashtirishiga imkon yaratadi. Refleksiv kundaliklar, portfoliolar, guruhli muhokamalar va

o'zaro baholash metodlari ham refleksiv kompetensiyani shakllantirishning samarali vositalari sifatida tavsifiya etilmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, refleksiya va refleksiv kompetensiya masalalari pedagogika hamda psixologiyada keng o'rganilgan bo'lsa-da, ularni aynan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot asosida rivojlantirishning nazariy-metodik mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Ayniqsa, pedagogik muloqotning refleksiv kompetensiyaning kognitiv, motivatsion va faoliyat komponentlariga ta'siri hamda ularni rivojlantirishning samarali texnologiyalarini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur holat ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida refleksiya, refleksiv kompetensiya hamda pedagogik muloqotga oid ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, o'qituvchi-o'quvchi muloqotining refleksiv kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni pedagogik kuzatish va mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish orqali o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini refleksiyaning psixologik va pedagogik nazariyalari, pedagogik muloqot konsepsiyalari hamda zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim yondashuvlari tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar tahlili asosida refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida refleksiya, refleksiv kompetensiya va pedagogik muloqotga oid ilmiy manbalar nazariy tahlil qilindi. Tahlil natijalari refleksiv kompetensiya o'quvchining o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan integrativ sifat ekanligini ko'rsatdi. O'rganilgan ilmiy manbalarda refleksiv kompetensiyaning kognitiv, motivatsion va faoliyat komponentlari alohida ajratilgan bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishi aniqlandi.

Qiyosiy tahlil asosida turli olimlarning refleksiya va pedagogik muloqotga doir qarashlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, pedagogik muloqot jarayonida o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashi, savollarga mustaqil javob izlashi hamda o'z faoliyati natijalarini baholashi refleksiv fikrlashning faollashishiga xizmat qiladi.

Pedagogik kuzatish natijalariga ko'ra, interfaol metodlardan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikr bildirish darajasi va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan yuqoriroq namoyon bo'ldi. Ayniqsa, muammoli savollar, guruhli muhokamalar, "BBB", "Insert" va "Klaster" metodlaridan foydalanish o'quvchilarning tahliliy fikrlash faoliyatini rag'batlantirib, refleksiv faoliyatni kuchaytirishi kuzatildi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalarini tizimlashtirish asosida refleksiv kompetensiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Ular qatoriga ochiq va ishonchli pedagogik muhit yaratish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, muntazam teskari aloqa mexanizmlarini qo'llash hamda individual yondashuvni amalga oshirish kiritildi. Mazkur omillarning uyg'unlashuvi o'quvchilarda o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, xatolarini anglash va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Olingan natijalarni umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, refleksiv kompetensiyaning samarali rivojlanishi ta'lim jarayonida pedagogik muloqotning mazmuni va sifatiga bog'liq. O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan konstruktiv muloqot, muammoli vaziyatlar, savol-javoblar hamda refleksiv topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini baholash va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi, mas'uliyati va o'quv motivatsiyasining ortishiga ham xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida pedagogik muloqotni refleksiv yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishning samarali pedagogik sharti ekanligi isbotlandi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini boshqarishi va uzluksiz o'zini rivojlantirishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi.

№	Element	Mazmuni	Natijasi
1	Pedagogik muloqot	O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir	Refleksiv fikrlash boshlanadi
2	Kognitiv komponent	O'z faoliyatini anglash va tahlil qilish	Tahliliy fikrlash rivojlanadi
3	Motivatsion komponent	O'z-o'zini rivojlantirishga qiziqish	Ichki motivatsiya kuchayadi
4	Faoliyat komponenti	Bilimni amaliyotda qo'llash	Tajriba ortadi
5	Savol-javob	Muammoli savollar orqali fikrlash	Chuqur tahlil shakllanadi
6	Muammoli ta'lim	Vaziyatli topshiriqlar	Mustaqil qaror qabul qilish
7	O'z-o'zini baholash	Faoliyatni baholash	O'zini anglash kuchayadi
8	Feedback (teskari aloqa)	O'qituvchi fikri	Xatolar ustida ishlash
9	Interfaol metodlar	Klaster, BBB, Insert	Faollik oshadi
10	Refleksiv muhit	Ochiq va ishonchli muhit	Shaxsiy rivojlanish

Tadqiqot davomida refleksiv kompetensiyaning rivojlanishida pedagogik muloqotning kommunikativ jihatlar alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlikka asoslangan muloqotni tashkil etishi, ularning fikrlarini hurmat qilishi va erkin fikr bildirish uchun qulay psixologik muhit yaratishi refleksiv faoliyatning faollashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda o'quvchilar o'z fikrlarini tahlil qilish, asoslash va qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nazariy manbalar tahlili refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi o'quvchilarning metakognitiv qobiliyatlari bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. O'quvchilar o'z fikrlash jarayonlarini nazorat qilish, o'quv strategiyalarini tanlash va o'zlashtirish natijalarini baholash orqali refleksiv faoliyatni amalga oshiradilar. Bu esa ta'lim jarayonida metakognitiv yondashuvlardan foydalanish refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Pedagogik kuzatishlar natijasida o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash faoliyatlariga muntazam jalb etilishi ularda mas'uliyat hissining ortishiga xizmat qilishi kuzatildi. O'quvchilar bajarilgan topshiriqlar natijalarini tahlil qilish orqali o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada ularda keyingi faoliyatni rejalashtirish va takomillashtirish ehtiyoji shakllandi.

Shuningdek, refleksiv kundaliklardan foydalanish o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatiga nisbatan ongli munosabatini kuchaytirishi aniqlandi. Kundaliklarda o'quvchilar dars davomida o'rganagan bilimlari, duch kelgan qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish usullari haqida fikr yuritdilar. Bu jarayon refleksiv tahlilning muntazam amalga oshirilishiga va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qildi.

Tahlillar natijasida refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi o'quvchilarning akademik natijalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. O'z faoliyatini tahlil qila oladigan, xatolarini angelaydigan va ularni tuzatish yo'llarini izlaydigan o'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirish darajasi hamda ta'lim motivatsiyasi yuqoriroq bo'lishi kuzatildi. Bu holat refleksiv kompetensiyaning nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Umumiy natijalar pedagogik muloqot, refleksiv faoliyat va ta'lim samaradorligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Samarali tashkil etilgan pedagogik muloqot o'quvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantiradi, refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi esa o'quv faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Shu bois zamonaviy ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvga asoslangan pedagogik muloqot texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot refleksiv kompetensiyaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchi ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv o'quvchilardan nafaqat bilimlarni o'zlashtirishni, balki o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan refleksiv kompetensiya o'quvchining shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda bayon etilgan nazariy qarashlarni tasdiqladi. Xususan, S.L. Rubinshteyn tomonidan ilgari surilgan ong va faoliyat birligi tamoyili refleksiv kompetensiyaning shakllanishida o'z ifodasini topadi. O'quvchi o'z faoliyatini natijalarini anglab, ularni tahlil qilgan sari uning o'quv faoliyatiga nisbatan ongli munosabati shakllanadi. Bu esa refleksiv fikrlashning rivojlanishiga zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning o'z faoliyatini baholash va tahlil qilishga muntazam jalb etilishi ularda mustaqil fikrlash hamda mas'uliyat hissining ortishiga olib kelishini ko'rsatdi.

Shuningdek, V.A. Slastenin va A.K. Markovanning refleksiyani kasbiy va shaxsiy rivojlanish omili sifatida talqin qiluvchi qarashlari ham tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Chunki refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi o'quvchilarda o'z ustida ishlash, xatolarini tan olish va ularni bartaraf

etishga intilish kabi sifatarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida ularning kasbiy tayyorgarligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama natijalari pedagogik muloqotning sifati refleksiv kompetensiyaning rivojlanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ham ko'rsatdi. Agar muloqot bir tomonlama axborot uzatish shaklida tashkil etilsa, o'quvchilarning refleksiv faoligi nisbatan past bo'ladi. Aksincha, savol-javob, munozara, fikr almashish va muammoli vaziyatlarni hal qilishga asoslangan muloqot shakllari o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi. Bunday sharoitda o'quvchilar nafaqat bilimlarni qabul qiladilar, balki ularni tahlil qiladilar, o'z nuqtai nazarlarini asoslaydilar va mavjud qarashlarni qayta ko'rib chiqadilar. Natijada refleksiv faoliyatning barcha komponentlari faollashadi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlardan foydalanish refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositalaridan biri ekanligi aniqlandi. "Klaster", "BBB", "Insert", guruhli muhokama va muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularni mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning mavjud bilimlarini qayta tahlil qilish, turli yechim variantlarini solishtirish va eng maqbul qarorni tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa refleksiv fikrlashning chuqurlashishiga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida teskari aloqaning refleksiv kompetensiya rivojlanishidagi o'rni ham alohida namoyon bo'ldi. O'qituvchi tomonidan berilgan konstruktiv tavsiyalar va izohlar o'quvchilarga o'z faoliyatidagi kamchiliklarni anglash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, o'zaro baholash va o'z-o'zini baholash elementlarining qo'llanilishi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Natijada refleksiv kompetensiyaning motivatsion va faoliyat komponentlari yanada mustahkamlanadi.

Tadqiqot natijalari refleksiv muhit yaratishning ahamiyatini ham ko'rsatdi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishi, xatolardan qo'rqqanligi va fikrlar xilma-xilligiga hurmat bilan yondashilishi ta'minlangan muhitda refleksiv faoliyat samaraliroq rivojlanadi. Bunday pedagogik muhit o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, o'z-o'zini anglash jarayonini faollashtiradi hamda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, muhokama natijalari refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi ko'p jihatdan pedagogik muloqotning mazmuni, shakli va tashkil etilish darajasiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Samarali pedagogik muloqot o'quvchilarning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim amaliyotida refleksiv yondashuvga asoslangan pedagogik muloqotni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish va muntazam teskari aloqani yo'lga qo'yish refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot refleksiv kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda refleksiv kompetensiya alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida o'rganilgan nazariy manbalar va tahlil qilingan ilmiy qarashlar refleksiv kompetensiyaning shaxsning o'zini anglash, o'z faoliyatini boshqarish hamda uzluksiz rivojlantirish jarayonlarida muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari pedagogik muloqot refleksiv kompetensiyaning barcha tarkibiy komponentlari – kognitiv, motivatsion va faoliyat komponentlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. O'quvchilar pedagogik muloqot jarayonida o'z fikrlarini erkin ifodalash, o'z qarashlarini asoslash, muammolar yuzasidan mustaqil xulosa chiqarish hamda o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada ularda o'z bilim va ko'nikmalarini baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga

yo'naltirilgan refleksiv faoliyat shakllanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyalari, refleksiv topshiriqlar, o'z-o'zini baholash va teskari aloqa mexanizmlaridan foydalanish refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositalari ekanligi aniqlandi. Mazkur metodlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi, mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, ochiq muloqot va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhiti o'quvchilarning refleksiv fikrlashini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat ta'lim natijalarining yaxshilanishiga, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, kommunikativ madaniyati, ijtimoiy faolligi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Refleksiv kompetensiyaga ega bo'lgan o'quvchi o'z oldiga maqsad qo'ya oladi, o'z faoliyatini rejalashtiradi, natijalarni tahlil qiladi va kelgusidagi rivojlanish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 39 b.
2. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии / С. Л. Рубинштейн. – 2-е изд. – М.: Педагогика, 1989. – 488 с.
3. Сластенин В. А. Педагогика: учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; под ред. В. А. Сластенина. – М.: Академия, 2002. – 576 с.
4. Маркова А. К. Психология профессионализма / А. К. Маркова. – М.: Знание, 1996. – 312 с.
5. Кондратьева С. В. Психология педагогического общения / С. В. Кондратьева. – М.: Изд-во Московского психолого-социального института, 2001. – 192 с.
6. Леонтьев А. А. Педагогическое общение / А. А. Леонтьев. – М.: Знание, 1997. – 96 с.

yo'nalishlarini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagogik muloqotning refleksiv kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari hali to'liq ishga solinmaganligini ham ko'rsatdi. Kelgusida ta'lim jarayoniga refleksiv yondashuvga asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, refleksiv topshiriqlar tizimini takomillashtirish hamda o'qituvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik tayyorgarligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqotni refleksiv yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning o'z-o'zini anglash, o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali sharti hisoblanadi. Bunday yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan faol, mustaqil, mas'uliyatli va uzluksiz o'zini rivojlantirishga qodir shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

7. Зеер Э. Ф. Профессиональное образование: теоретико-прикладные аспекты / Э. Ф. Зеер. – Екатеринбург: Изд-во РГПУ, 2003. – 480 с.
8. Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения: опыт теоретического и экспериментального психологического исследования / В. В. Давыдов. – М.: Педагогика, 1986. – 240 с.
9. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева, А. Е. Петров; под ред. Е. С. Полат. – М.: Академия, 2000. – 272 с.
10. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках / М. В. Кларин. – М.: Арена, 1995. – 222 с.